MILLIY CHOLG‘ULAR JO‘RLIGIDA O‘QUVCHILARNING JO‘RNAVOZLIK KO‘NIKMALARINI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK-METODIK ASOSLARI

Abdullayeva Shakarjon Hamrayevna
O’zDSMI,Xalq ijodiyoti: cholg’u ijrochiligi mutaxassisligi 1-kurs magistranti
shakarjonabdullayeva@gmail.com
UO‘K: 373.5.091.33:78

Annotatsiya: *ushbu maqolada musiqa to‘garaklari faoliyatida o‘quvchilarning milliy cholg‘ular jo‘rligida jo‘rnavozlik ko‘nikmalarini shakllantirishning pedagogik va metodik asoslari yoritilgan. Jo‘rnavozlik faoliyatining mazmuni, uning o‘quvchilarning musiqiy-ijrochilik qobiliyatlari, ritmik sezgisi, eshitish madaniyati, jamoaviy ijro va ijodiy hamkorlik ko‘nikmalarini rivojlantirishdagi ahamiyati tahlil qilingan. Shuningdek, milliy cholg‘ular imkoniyatlaridan foydalanish, o‘quvchilarning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olish, ijro jarayonida musiqiy muvozanatni ta’minlash hamda ansambl bilan ishlashga yo‘naltirilgan metodik yondashuvlar asoslangan. Maqolada jo‘rnavozlik ko‘nikmalarini shakllantirishning asosiy tarkibiy qismlari, pedagogik shart-sharoitlari va bosqichlari tizimlashtirilgan. Taklif etilgan metodik yondashuv musiqa to‘garaklarida milliy cholg‘ular vositasida o‘quvchilarning musiqiy savodxonligi, ijrochilik tajribasi va jamoaviy ijro madaniyatini rivojlantirishga xizmat qiladi.*

Kalit so‘zlar: *musiqa ta’limi, musiqa to‘garagi, jo‘rnavozlik, milliy cholg‘ular, ansambl ijrosi, musiqiy eshitish, ritmik sezgi, ijrochilik ko‘nikmalari, jamoaviy ijro.*

Аннотация: *в статье рассматриваются педагогические и методические основы формирования навыков аккомпанемента у учащихся в процессе занятий музыкальных кружков с использованием национальных музыкальных инструментов. Анализируется значение совместного музицирования для развития музыкально-исполнительских способностей, чувства ритма, слухового восприятия, навыков ансамблевого исполнения и творческого взаимодействия учащихся. Особое внимание уделяется возможностям использования национальных инструментов, учёту*

возрастных и индивидуальных особенностей обучающихся, обеспечению музыкального баланса и организации коллективной исполнительской деятельности. Систематизированы основные компоненты, педагогические условия и этапы формирования навыков аккомпанемента. Предлагаемый методический подход направлен на повышение эффективности музыкально-образовательного процесса, развитие исполнительской культуры и приобщение учащихся к национальному музыкальному наследию.

Ключевые слова: *музыкальное образование, музыкальный кружок, аккомпанемент, национальные музыкальные инструменты, ансамблевое исполнение, музыкальный слух, чувство ритма, исполнительские навыки.*

Abstract: *this article examines the pedagogical and methodological foundations of developing students' accompaniment skills through the use of traditional musical instruments in extracurricular music activities. It analyzes the role of collaborative music-making in developing musical performance abilities, rhythmic awareness, listening skills, ensemble coordination, and creative interaction. Particular attention is given to the educational potential of traditional instruments, the consideration of students' age-related and individual characteristics, the maintenance of musical balance, and the organization of collective performance. The main components, pedagogical conditions, and stages involved in developing accompaniment skills are systematized. The proposed methodological approach aims to improve music education practices, strengthen students' performance culture, and promote engagement with national musical heritage.*

Keywords: *music education, music club, accompaniment, traditional musical instruments, ensemble performance, musical listening, rhythmic awareness, performance skills.*

KIRISH

Bugungi kunda ta'lim tizimida o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, ularning milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalanishi hamda san'atga bo'lgan qiziqishini kuchaytirish muhim pedagogik vazifalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, musiqa ta'limi o'quvchilarning estetik didi, badiiy tafakkuri, hissiy dunyosi va ijodiy faolligini shakllantirishda alohida ahamiyat kasb etadi.

Musiqa to'garaklari umumta'lim maktablaridagi darsdan tashqari ta'lim faoliyatining muhim shakli bo'lib, o'quvchilarning musiqiy qobiliyatlarini

amaliy faoliyat orqali rivojlantirish imkonini beradi. Bunday mashg‘ulotlarda milliy cholg‘ulardan foydalanish o‘quvchilarning xalq musiqasi namunalarini o‘rganishi, milliy ijrochilik an’analarini anglab yetishi va jamoaviy ijro tajribasini egallashiga xizmat qiladi. Musiqa to‘garaklarida tashkil etiladigan ijrochilik faoliyatining muhim yo‘nalishlaridan biri jo‘rnavozlik hisoblanadi. Jo‘rnavozlik — musiqiy asarning asosiy kuyiga ritmik, garmonik yoki melodik jihatdan mos keluvchi qo‘shimcha ijro orqali uning badiiy mazmunini to‘ldirish faoliyatidir. Ushbu jarayon o‘quvchidan nafaqat cholg‘u asbobini chalish malakasini, balki musiqiy eshitish, ritmni his etish, ijro sur’atini saqlash, boshqa ijrochilarni tinglash va ular bilan muvofiqlashish qobiliyatini ham talab qiladi. Jo‘rnavozlik faoliyatining yana bir muhim jihati shundaki, unda o‘quvchi faqat o‘z ijrosiga emas, balki umumiy musiqiy jarayonga ham mas’uliyat bilan yondashishni o‘rganadi. Bu esa unda tinglash madaniyati, o‘zaro hurmat, hamkorlik va jamoa oldidagi mas’uliyat kabi sifatlarning shakllanishiga yordam beradi.

Mavzuning dolzarbligi musiqa to‘garaklarida milliy cholg‘ular jo‘rligida jamoaviy ijroni tashkil etish, o‘quvchilarning jo‘rnavozlik ko‘nikmalarini izchil rivojlantirish hamda ushbu jarayon uchun samarali pedagogik-metodik yondashuvlarni ishlab chiqish zarurati bilan belgilanadi.

Tadqiqotning maqsadi — musiqa to‘garaklarida milliy cholg‘ular jo‘rligida o‘quvchilarning jo‘rnavozlik ko‘nikmalarini shakllantirishning pedagogik-metodik asoslarini aniqlash va samarali metodik tavsiyalarni ishlab chiqish.

Tadqiqot maqsadidan kelib chiqib quyidagi vazifalar belgilandi:

- jo‘rnavozlik faoliyatining pedagogik va musiqiy mazmunini ochib berish;
- milliy cholg‘ularning jo‘rnavozlik faoliyatidagi imkoniyatlarini aniqlash;
- jo‘rnavozlik ko‘nikmalarining tarkibiy qismlarini tasniflash;
- o‘quvchilarda jo‘rnavozlik ko‘nikmalarini shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlarini asoslash;
- musiqa to‘garaklari uchun metodik tavsiyalar ishlab chiqish.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Musiqiy ta’limda jamoaviy ijro, ansambl faoliyati va o‘zaro tinglash ko‘nikmalarini rivojlantirish masalalari xorijiy ilmiy-pedagogik tadqiqotlarda keng o‘rganilgan.

Musiqiy ta’limda norasmiy o‘rganish, o‘quvchilarning mustaqil musiqiy faoliyati va birgalikda ijod qilish tajribasining ahamiyatini asoslaydi. Uning

yondashuvida o‘quvchilarning musiqiy faoliyatda faol ishtirok etishi, mustaqil qaror qabul qilishi va o‘zaro tajriba almashishi muhim o‘rin tutadi bu esa o‘quvchilarning musiqiy faoliyatda faol ishtirok etishi va mustaqil ijodiy tajriba orttirishi ta’lim samaradorligini oshiradi [1,2,3]. Instrumental guruh mashg‘ulotlarida hamkorlikka asoslangan ijodkorlik masalalarini tahlil qilib, jamoaviy musiqiy faoliyat o‘quvchilarning ijodiy fikrlashi va musiqiy muloqotini rivojlantirishga yordam berishini ta’kidlaydi [4]. Ansambl mashg‘ulotlarida tanqidiy tinglash va o‘quvchilarning musiqiy jarayonda faol ishtirok etishiga e’tibor qaratadi. Bunday yondashuvda ijro jarayonini tinglash, xatolarni anglash va musiqiy natijani birgalikda takomillashtirish muhim metodik omil sifatida namoyon bo‘ladi. Jamoaviy ijro davomida o‘quvchilarning o‘zaro muloqoti va musiqiy qarorlar qabul qilishi muhimligini ko‘rsatadi [5,6].

Mazkur ilmiy qarashlar jo‘rnavozlik faoliyatini faqat cholg‘u ijrochiligi bilan cheklab bo‘lmasligini ko‘rsatadi. U musiqiy eshitish, jamoaviy muvofiqlashuv, ijodiy hamkorlik va ijro madaniyatini o‘zida mujassam etgan murakkab pedagogik jarayondir. Shu bilan birga, milliy cholg‘ular vositasida musiqa to‘garaklarida jo‘rnavozlik ko‘nikmalarini shakllantirish masalasini o‘quvchilarning yosh xususiyatlari, milliy musiqiy meros va to‘garak faoliyatining o‘ziga xos sharoitlari bilan bog‘liq holda o‘rganish muhim ahamiyatga ega.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotning metodologik asosini musiqiy-pedagogik faoliyatga tizimli, faoliyatga yo‘naltirilgan, shaxsga yo‘naltirilgan va kompetensiyaviy yondashuvlar tashkil etadi. Tizimli yondashuv jo‘rnavozlik ko‘nikmalarini o‘zaro bog‘liq tarkibiy qismlardan tashkil topgan yaxlit jarayon sifatida o‘rganish imkonini beradi. Faoliyatga yo‘naltirilgan yondashuv esa o‘quvchilarning musiqiy bilimlarni bevosita cholg‘u ijrochiligi va ansambl mashg‘ulotlari orqali egallashiga asoslanadi. Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvda o‘quvchilarning musiqiy qobiliyati, cholg‘u ijrochiligiga tayyorgarligi, qiziqishi va individual imkoniyatlari hisobga olinadi. Kompetensiyaviy yondashuv esa o‘quvchining egallagan bilim va malakalarini amaliy ijro jarayonida qo‘llay olishiga yo‘naltiriladi.

Tadqiqotda quyidagi nazariy va pedagogik metodlardan foydalanish nazarda tutiladi:

- ilmiy-pedagogik adabiyotlarni tahlil qilish;
- taqqoslash va umumlashtirish;
- pedagogik kuzatish;

- suhbat va so‘rovnoma;
- musiqiy-ijrochilik faoliyatini tahlil qilish;
- pedagogik tajriba-sinov ishlarini tashkil etish.

Ushbu metodlar jo‘rnavozlik ko‘nikmalarining shakllanish jarayonini o‘rganish, mavjud metodik imkoniyatlarni aniqlash va ularni ta’lim jarayoniga tatbiq etish uchun xizmat qiladi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

*** Jo‘rnavozlik ko‘nikmalarining pedagogik mazmuni.** Jo‘rnavozlik faoliyati musiqa to‘garaklarida o‘quvchilarning individual ijrochilik imkoniyatlarini jamoaviy musiqiy faoliyat bilan uyg‘unlashtiradi. Ushbu jarayonda har bir ijrochi umumiy musiqiy asarning mazmunini anglagan holda o‘z vazifasini bajaradi. Jo‘rnavozlik ko‘nikmalarini shakllantirishda quyidagi tarkibiy qismlarni ajratish maqsadga muvofiq:

*** Motivatsion-qiziqish komponenti.** O‘quvchining milliy cholg‘ular, xalq kuy-qo‘shiqlari va jamoaviy ijroga qiziqishi, mashg‘ulotlarda faol qatnashishga intilishi bilan belgilanadi.

*** Kognitiv-bilim komponenti.** O‘quvchining musiqiy asar tuzilishi, ritm, sur’at, o‘lchov, kuy xarakteri va cholg‘ularning ijro imkoniyatlari haqidagi bilimlarini qamrab oladi.

*** Ijrochilik-amaliy komponenti.** Cholg‘u asbobida jo‘r bo‘lish, ritmik shakllarni to‘g‘ri bajarish, ijro sur’atini saqlash va musiqiy jumlalarni muvofiqlashtirish ko‘nikmalarini ifodalaydi.

*** Kommunikativ-hamkorlik komponenti.** Ansambl a’zolarini tinglash, ijro jarayonida o‘zaro moslashish, rahbar ko‘rsatmalariga amal qilish va umumiy ijro natijasi uchun mas’uliyatni his etishni anglatadi.

*** Ijodiy-refleksiv komponent.** Musiqiy asarga mos jo‘r usullarini tanlash, ijroni mustaqil tahlil qilish, xatolarni aniqlash va ularni bartaraf etishga intilish bilan tavsiflanadi.

Mazkur komponentlar bir-biri bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, jo‘rnavozlik ko‘nikmalarining izchil rivojlanishini ta’minlaydi.

Milliy cholg‘ularning jo‘rnavozlik faoliyatidagi imkoniyatlari: O‘zbek milliy cholg‘ulari o‘zining tembr, tovush diapazoni, ijro usullari va badiiy imkoniyatlari bilan ajralib turadi. Ularni musiqa to‘garaklari mashg‘ulotlariga jalb etish o‘quvchilarning milliy musiqiy merosga qiziqishini kuchaytirish bilan birga, jamoaviy ijro ko‘nikmalarini shakllantirishga ham xizmat qiladi.

Jo‘rnavozlik faoliyatida quyidagi cholg‘ulardan foydalanish mumkin:

Jadval-1

Milliy cholg‘u	Jo‘rnavozlikdagi imkoniyati
Doira	Ritmik asos yaratish, usulni saqlash
Dutor	Kuyga melodik va ritmik jo‘r bo‘lish
Rubob	Melodik jo‘rnavozlik va musiqiy bezaklar
Tanbur	Melodik yo‘nalishni boyitish
G‘ijjak	Cho‘zimli tovushlar va melodik uyg‘unlik
Nay	Melodik qatlam va musiqiy ifodani kuchaytirish
Qashqar rubob	Melodik va ritmik jo‘rnavozlik imkoniyatlari

Cholg‘ularni tanlashda o‘quvchilarning yosh xususiyatlari, ijrochilik tayyorgarligi, mashg‘ulot sharoiti va tanlangan musiqiy asarning xarakteri hisobga olinishi zarur.

Masalan, doira yordamida o‘quvchilarda usulni his qilish, ritmik barqarorlik va ijro sur’atini saqlash ko‘nikmalarini rivojlantirish mumkin. Dutor va rubob kabi cholg‘ular esa kuyga mos melodik jo‘r yaratish, musiqiy jumlalarni tinglash va ijrodagi uyg‘unlikni his etishga yordam beradi. Bunda cholg‘ularni birgalikda ijro ettirishdan oldin ularning vazifalarini aniq belgilash lozim. Aks holda, ijro jarayonida tovushlar muvozanatining buzilishi yoki asosiy kuy yo‘nalishining yetarlicha namoyon bo‘lmasligi mumkin.

Jo‘rnavozlik ko‘nikmalarini shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari

Musiqa to‘garaklarida jo‘rnavozlik ko‘nikmalarining samarali shakllanishi bir qator pedagogik shart-sharoitlarga bog‘liq.

Birinchidan, mashg‘ulotlarda qulay ijodiy muhit yaratish zarur. O‘quvchilar xato qilishdan cho‘chimagan holda o‘z ijrochilik imkoniyatlarini namoyon etishlari, o‘zaro fikr almashishlari va bir-birlarini tinglashlari lozim.

Ikkinchidan, musiqiy materiallarni o‘quvchilarning tayyorgarlik darajasiga muvofiq tanlash muhim. Dastlab sodda ritmik shakllar va qisqa kuylar asosida mashg‘ulotlar tashkil etilib, keyinchalik murakkabroq ansambl asarlariga o‘tilishi maqsadga muvofiq.

Uchinchidan, milliy cholg‘ularning ijro imkoniyatlaridan maqsadli foydalanish kerak. Har bir o‘quvchiga uning qobiliyati va tayyorgarligiga mos ijro vazifasi berilishi mashg‘ulotlarning samaradorligini oshiradi.

To‘rtinchidan, mashg‘ulotlarda muntazam tinglash va tahlil qilish faoliyatiga e’tibor qaratish lozim. O‘quvchi o‘z ijrosini va boshqa ijrochilarning faoliyatini tinglash orqali musiqiy kamchiliklarni aniqlash hamda ularni tuzatish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Jo‘rnavozlik ko‘nikmalarini shakllantirish metodikasi

Jo‘rnavozlik ko‘nikmalarini shakllantirish jarayonini uch bosqichda tashkil etish taklif etiladi.

Birinchi bosqich — tayyorgarlik va musiqiy idrokni rivojlantirish.

Ushbu bosqichda o‘quvchilarga milliy cholg‘ularning tovush xususiyatlari, ijro usullari va ansambldagi vazifalari tushuntiriladi. Ritmik mashqlar, kuy tinglash, musiqiy o‘lchov va sur’atni aniqlashga doir topshiriqlar bajariladi.

Tavsiya etiladigan mashqlar:

- oddiy ritmik shakllarni qo‘l chapaklari yordamida takrorlash;
- doirada sodda usullarni ijro etish;
- kuy xarakterini tinglab aniqlash;
- asosiy kuy va jo‘r vazifasini farqlash.

Ikkinchi bosqich — amaliy ijrochilik va ansamblda muvofiqlashuv.

Bu bosqichda o‘quvchilar milliy cholg‘ularda sodda jo‘r shakllarini ijro etadilar. Mashg‘ulotlarda kichik guruhlar tashkil etilib, har bir guruhga alohida musiqiy vazifa beriladi.

Masalan, bir guruh doirada ritmik asosni ijro etsa, ikkinchi guruh dutor yoki rubobda kuyga mos jo‘rni bajaradi. Uchinchi guruh esa asosiy kuy yo‘nalishini ijro etishi mumkin.

Mazkur jarayonda quyidagi metodlardan foydalanish tavsiya etiladi:

- **Namoyish metodi:** pedagog tomonidan jo‘rnavozlik usullarini amaliy ko‘rsatish.
- **Takrorlash metodi:** musiqiy shakllarni bir necha bor takrorlash orqali ijro aniqligini rivojlantirish.
- **Guruhli ijro metodi:** o‘quvchilarni kichik ansambllarga ajratib, hamkorlikda ijro ettirish.
- **Tinglash va tahlil metodi:** ijro yozuvlarini tinglash va kamchiliklarni aniqlash.
- **Ijodiy topshiriq metodi:** o‘quvchilarga mustaqil ritmik yoki melodik jo‘r variantlarini yaratish vazifasini berish.

Uchinchi bosqich — mustaqil ijro va ijodiy faoliyat.

Ushbu bosqichda o‘quvchilar o‘zlashtirgan bilim va ko‘nikmalarini mustaqil ansambl ijrosida namoyon etadilar. Ular musiqiy asarning xarakteriga mos jo‘r usullarini tanlash, ijro sur’atini saqlash, boshqa ijrochilar bilan muvofiqlashish va umumiy badiiy natijaga erishishga intiladilar. Bosqich yakunida musiqa to‘garagi ishtirokchilarining kichik konsert dasturlari, ijodiy chiqishlari va ansambl ijrolarini tashkil etish maqsadga muvofiq.

Jo‘rnavozlik ko‘nikmalarining shakllanganlik darajasini baholash

O‘quvchilarning jo‘rnavozlik ko‘nikmalarini baholashda faqat cholg‘uni texnik jihatdan to‘g‘ri chalish emas, balki ularning umumiy musiqiy faoliyatdagi ishtiroki ham hisobga olinishi lozim.

Quyidagi mezonlardan foydalanish taklif etiladi:

Jadval-2

Baholash mezoni	Aniqlanadigan ko‘nikma
Musiqiy eshitish,	Asosiy kuy va jo‘rni farqlash, boshqa ijrochilarni tinglash
Ritmik barqarorlik	Usul va sur’atni saqlash
Ijrochilik mahorati	Cholg‘uda jo‘r usullarini to‘g‘ri bajarish
Ansambl uyg‘unligi	Boshqa ijrochilar bilan muvofiqlashish
Mustaqil ijodkorlik	Asarga mos jo‘r variantlarini taklif qilish

Baholash jarayonida shartli ravishda boshlang‘ich, o‘rta va yuqori darajalarni ajratish mumkin.

Boshlang‘ich daraja: o‘quvchi pedagog ko‘rsatmasi va bevosita yordami asosida sodda ritmik yoki melodik jo‘rni bajaradi, biroq ijro sur’ati va ansambl uyg‘unligini saqlashda qiyinchiliklarga duch keladi.

O‘rta daraja: o‘quvchi tanish musiqiy asarlarga mos jo‘rni mustaqilroq ijro etadi, ritmik barqarorlikni saqlaydi va ansambl ishtirokchilarining ijrosiga moslashadi.

Yuqori daraja: o‘quvchi jo‘rnavozlik vazifasini mustaqil anglaydi, musiqiy asarning xarakteriga mos ijro usulini tanlaydi, ansamblda faol ishtirok etadi va ijodiy takliflar bera oladi.

Ushbu mezonlar o‘quvchilarning individual rivojlanish dinamikasini kuzatish va keyingi mashg‘ulotlar mazmunini belgilashga yordam beradi.

XULOSA VA TAVSIYALAR

Musiqa to‘garaklarida milliy cholg‘ular jo‘rligida o‘quvchilarning jo‘rnavozlik ko‘nikmalarini shakllantirish musiqiy ta’limning muhim pedagogik yo‘nalishlaridan biridir. Jo‘rnavozlik faoliyati o‘quvchilarning cholg‘u ijrochiligi, musiqiy eshitish, ritmik sezgi, jamoaviy hamkorlik va ijodiy fikrlash qobiliyatlarini o‘zaro uyg‘unlikda rivojlantirish imkonini beradi.

Tadqiqot doirasidagi nazariy-metodik tahlillar asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Jo‘rnavozlik ko‘nikmalari faqat cholg‘u asbobini chalish malakasi bilan cheklanmaydi. U musiqiy idrok, ritmik barqarorlik, ijrochilik, kommunikativ hamkorlik va ijodiy faollikni o‘z ichiga oladi.

2. Milliy cholg‘ularning tembr va ijro imkoniyatlaridan maqsadli foydalanish o‘quvchilarning milliy musiqiy merosga qiziqishini kuchaytiradi hamda ansambl ijrosi uchun zarur sharoit yaratadi.

3. Jo‘rnavozlik ko‘nikmalarini shakllantirishda o‘quvchilarning yosh, individual va ijrochilik xususiyatlarini hisobga olish muhim pedagogik shart hisoblanadi.

4. Mashg‘ulotlarni tayyorgarlik, amaliy ijrochilik va mustaqil ijodiy faoliyat bosqichlari asosida tashkil etish ko‘nikmalarning izchil rivojlanishiga yordam beradi.

5. Tinglash, takrorlash, guruhli ijro, musiqiy tahlil va ijodiy topshiriqlar metodlaridan kompleks foydalanish musiqa to‘garaklari faoliyatining metodik samaradorligini oshiradi.

Shu asosda musiqa to‘garagi rahbarlariga quyidagi tavsiyalar beriladi:

- mashg‘ulotlarda doira, dutor, rubob, tanbur, g‘ijjak va boshqa milliy cholg‘ulardan o‘quvchilarning imkoniyatlariga mos ravishda foydalanish;
- dastlab sodda ritmik jo‘r mashqlaridan boshlash va bosqichma-bosqich murakkab ansambl ijrosiga o‘tish;
- har bir o‘quvchining ansambldagi vazifasini aniq belgilash;
- mashg‘ulotlarda tinglash va o‘zaro tahlil qilish faoliyatiga muntazam e’tibor qaratish;
- o‘quvchilarga mustaqil jo‘r variantlarini yaratish imkoniyatini berish;
- erishilgan natijalarni ijrochilik, ritmik barqarorlik, musiqiy eshitish va hamkorlik mezonlari asosida baholab borish.

Xulosa qilib aytganda, milliy cholg‘ular jo‘rligida tashkil etilgan musiqiy faoliyat o‘quvchilarning nafaqat ijrochilik mahoratini, balki milliy musiqiy qadriyatlarga munosabati, jamoaviy mas’uliyati va ijodiy tafakkurini ham rivojlantirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. **Green L.** Music, Informal Learning and the School: A New Classroom Pedagogy. – Aldershot: Ashgate, 2008.

2. **Burnard P., Dragovic V.** Collaborative Creativity in Instrumental Group Music Learning as a Site for Enhancing Pupil Wellbeing // Cambridge Journal of Education. – 2015.

3. **Elliott D. J.** Music Matters: A New Philosophy of Music Education. – New York: Oxford University Press, 1995.

4. **Bell C. L.** Critical Listening in the Ensemble Rehearsal: A Community of Learners // Music Educators Journal. – 2018. – Vol. 104, No. 3. – P. 17–25.

5. **Slette A. L.** Negotiating Musical Problem-Solving in Ensemble Rehearsals // British Journal of Music Education. – 2019. – Vol. 36, No. 1. – P. 33–47.

6. **Bussu A., Mangiarulo M.** Playing Music Together: The Role of Musical Collaboration in Social Interaction // PLOS ONE. – 2024. – Vol. 19, No. 7. – Art. e0306326.